

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI**  
**«MISIS»NING OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY**  
**DARAJALAR BERUVCHI DSc. 22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY**  
**KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR**  
**UNIVERSITETI**

**NAZAROV JAMOLIDDIN TOSHKULOVICH**

**IKKILAMCHI TEXNOGEN RUDALARDAN URAN**  
**OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**04.00.10 – Geotexnologiya (ochiq, yer osti va qurilish);**  
**11.00.05 - Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Olmaliq – 2024**

**Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**  
**Оглавление автореферата докторской диссертации**  
**Content of abstract of doctoral dissertation**

<b>Nazarov Jamoliddin Toshkulovich</b> Ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasini ishlab chiqish.....	3
<b>Назаров Жамолиддин Тошкуллович</b> Разработка технологии извлечения урана из вторичных техногенных руд.....	29
<b>Nazarov Zhamoliddin Toshkulovich</b> Development of technology for uranium extraction from secondary technogenic ores.....	57
<b>E’lon qilangan ishlar ro‘yxati</b> Список опубликованных работ List of published works.....	61

**MILLIY TEXNOLOGIK TADQIQOTLAR UNIVERSITETI**  
**«MISIS»NING OLMALIQ SHAHRIDAGI FILIALI HUZURIDAGI ILMIY**  
**DARAJALAR BERUVCHI DSc. 22/30.12.2019.T.98.01 RAQAMLI ILMIY**  
**KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR**  
**UNIVERSITETI**

**NAZAROV JAMOLIDDIN TOSHKULOVICH**

**IKKILAMCHI TEXNOGEN RUDALARDAN URAN**  
**OLISH TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

**04.00.10 – Geotexnologiya (ochiq, yer osti va qurilish);**  
**11.00.05 - Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish**

**Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Olmaliq – 2024**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.3.DSc/T821 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.misis.uz) va «ZiyoNET» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchilar:**

**Umarov Farxodbek Yarkulovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Muzafarov Amrullo Mustafoyevich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Duysebaev Baurjan Orazovich**  
texnika fanlari doktori, akademik

**Kucharov Baxrom Xayriyevich**  
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**  
kimyo fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**«Mineral resurslar instituti» Davlat muassasasi**

Dissertatsiya himoyasi Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filialida huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.22/30.12.2019.T.98.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil 24 dekabr soat 9<sup>00</sup> dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57, e-mail: info@misis.uz).

Dissertatsiya bilan Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filialida Axborot resurs markazida tanishish mumkin ( 24-32-D raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 110101, Olmaliq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 56-uy. Tel.: (70) 614-22-57).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 11-dekabr kuni tarqatilgan.

(2024-yil 11-dekabrda №23 raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.R. Raimjanov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik  
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

**G.S. Nutfulloyev**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., dosent

**Sh.Sh. Zairov**

Ilmiy darajalar beruvchi

Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik  
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda uran 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab qazib olinib, uning hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Dunyoning ko'pgina davlatlarida u elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun asosiy energiya manbalaridan biridir. Uran qazib olish jarayonida juda ko'p miqdorda ikkilamchi texnogen rudalar hosil bo'ladi. Bugungi kunga qadar hosil bo'lgan uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning hajmi va ulardagi uran miqdori hisoblab chiqilgan. WISE (Uranium Project)ning 2012-yilgi hisobotida dunyoning turli konlarida 24 mlrd tonnaga yaqin uranli chiqindilar mavjudligi keltirilgan. Jahon yadro assotsiatsiyasining «Yadro yoqilg'isi uchun 2023-2040-yillarda talab va taklifning mavjudligi senariysi»da yaqin kelajakda dunyo aholisini elektr energiyasiga bo'lgan talabini qondirishda yadro energiyasi katta rol o'ynashi aytib o'tilgan. Hozirgi kunda uranga bo'lgan talab 65 650 tonna atrofida bo'lsa, 2040-yilga borib bu ko'rsatkich, 130 000 tonnaga yetadi, 2050-yilda esa yana 4-11% ga ortadi. Shu munosabat bilan uran tarkibli ikkilamchi rudalardan samarali foydalanish, uzoq yillar davomida to'planib qolgan bu turdagi rudalarni texnologik jarayonlarga qaytarish va ulardan qo'shimcha uran mahsulotini maksimal darajada ajratib olish imkonini beruvchi yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda uran tarkibli ikkilamchi rudalardan samarali foydalanish, uzoq yillar davomida to'planib qolgan bu turdagi rudalarni texnologik jarayonlarga qaytarish, texnogen chiqindilarni qayta ishlashning yangi usullarini yaratish, ikkilamchi texnogen rudalarni fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq qilish, texnogen chiqindilarni mineralogik tarkibini, fraktsion va granulometrik tahlil qilish, ikkilamchi texnogen rudalar tarkibidan uran olish orqali radiatsion ko'rsatkichlar qiymatini kamaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalarni kompleks qayta ishlash hamda geotexnologik parametrlarini baholash orqali arzon narxda qo'shimcha uran olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalardan uran ajratib olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va asoslash, uran tarkibli ikkilamchi rudalar joylashgan maydonlarning ekologik holatini yaxshilash orqali muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan fundamental natijalarga erishilmoqda. Bu borada «Navoiyuran» DK va «Navoiy kon metallurgiya kombinati» AJ texnogen chiqindilardan qimmatbaho metallar ajratib olishning yangi texnologiyalarini yaratish va takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida<sup>1</sup> «Yuqori daromadli mahsulot olish uchun zarur bo'lgan uran ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi rudalardan uran olishning samarali fizik-kimyoviy geotexnologik usulini ishlab chiqish va asoslashga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son, 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmonlari va 2022-yil 14-iyuldagi «2022-2030 yillarda «Navoiyuran» davlat korxonasi uranni qazib olish, qayta ishlash hajmlarini oshirish hamda uni transformatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-319-son, 2019-yil 4-oktabrdagi «2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «Yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PQ-4477-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. «Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xom ashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.** Ikkilamchi texnogen rudalardan uran ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan: School of Environmental Protection and Safety Engineering, University of South (Xitoy), Key Laboratory of Radioactive Waste Treatment and Disposal, University of Regina (Kanada), University of Nevada (AQSh), University of Utah (AQSh), Institute of Condensed Matter Chemistry (Fransiya), Universitete Antverpena RUCA (Belgiya), Seoul Nation University of Science and Technology (Janubiy Koreya), Nuclear Physics Institute (KXDR), University of Cape Town (JAR), University of the Witwatersrand (JAR), Rossiya Davlat geologiya-qidiruv universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Baykal orti davlat universiteti (Rossiya Federatsiyasi), Qozog‘iston milliy texnika universiteti (Qozog‘iston), Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISIS» (Rossiya Federatsiyasi) va boshqa ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalardan samarali foydalanish, uzoq yillar davomida to‘planib qolgan bu turdagi rudalarni texnologik jarayonlarga qaytarish va ulardan qo‘shimcha uran ajratib olish orqali hududning radiatsion ko‘rsatkichlar qiymatini pasaytirish bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida qator ilmiy natijalar olingan, shu jumladan: radioaktiv uranli loyni qayta ishlash usuli ishlab chiqilgan (Ural federal universiteti); elektr maydoni bilan integratsiyalashgan uranni suyultirilgan kislotali eritmaga o‘tkazishga asoslangan elektrokimyoviy eritmaga o‘tkazish usuli ishlab chiqilgan (University of South China); uranni faollashtirish usuliga qarab ajratib olish usuli ishlab chiqilgan (Shimoliy Kavkaz kon-metallurgiya instituti); texnogen chiqindi tarkibidagi komponentlarni konsentratga o‘tishi

---

<sup>2</sup>Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi [www.atlasrockbit.com](http://www.atlasrockbit.com), <http://www.vareintl.com>, [www.dissercat.com](http://www.dissercat.com), <http://vbm.ru>, <https://www.amazon.com>, <http://www.mirknigi.ru> va boshqa manbalar asosida bajarilgan.

aniqlangan va boyitish jarayonini takomillashtirishning matematik modeli ishlab chiqilgan (University of Toronto, Ukraina metallurgiya akademiyasi); sanoat ion almashtirgichlari, kation almashtirgichlari va tabiiy bifunksional sorbent yordamida uran sanoati chiqindilarining kon va drenaj suvlaridan uran olish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Tojikiston milliy fanlar akademiyasi).

Jahonda uran qazib olish natijasida hosil bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalardan uran ajratib olish va radiatsiya ko'rsatkichlari qiymatini kamaytirish texnologiyasini ishlab chiqishga oid quyidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda: uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning granulometrik tarkibini o'rganish; minerallarning fizik-kimyoviy va texnologik xossalarini aniqlash; moddiy tarkibini tahlil qilish va ishchi eritma tayyorlashning tejamkor texnologiyasini ishlab chiqish; reaktivning ruda bilan aloqasi optimal vaqtini tanlash; eritish jarayoni uchun maqbul kislotani tanlash; sulfat kislota konsentratsiyasini tanlash texnologiyasini ishlab chiqish; Q:S nisbatlarni tanlash; rudalarning granulometrik tarkibi va uranni eritmaga o'tkazishning geotexnologik ko'rsatkichlari.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasi va usullari bir qancha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumladan: Jing Huang, Mi Li, Fang-ying Gao, Xiaowen Zhang, Shaoyan Lv, Chunmei Huang, Xiaoyan Wu, Qi Fang, Amr Henni, Shahid Azam, Stephanie Young, Hussameldin Ibrahim, Ayepbax C.U., Bleylok G.V., Shvarts S.S., Anderson J.M., Riklefs R., Alfoldi L., Sparrow A.H., Kundler A.P., Odum Yu., Morozov A.A., Vorobyov A.Ye., Chekushina Ye.V., Mirsaidov U.M., Derbasova N.M., Gavrish M.V., Smirnov S.B., Gavrish V.M., Golik V.I., Razorenov Yu.I., Burdzieva O.G., Arens V.J., Baxurov V.G., Vecherkin S.G., Lusenko P.K., Zefirov A.P., Rudneva I.K., Jerin I.I., Desyatnikova D.T., Laskorin B.N., Lobanov D.P., Markelov S.V., Nebera V.N., Nesterov Yu.V., Tolstov Ye.A., Sanaqulov K.S., Sattarov G.S. va boshqa bir qancha olimlar bu borada ma'lum tadqiqotlarni amalga oshirishgan.

Biroq, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, shu paytgacha fizikaviy va kimyoviy geotexnologiyaning rekultivatsiya usullaridan foydalangan holda ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish, bu rudalardan uran olishning samarali texnologiyasini ishlab chiqish va bu rudalarning fizikaviy xossalarini o'zgartirish masalalari kam o'rganilgan yoki o'rganilmagan.

Shu munosabat bilan ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasini ishlab chiqish, rudaga reagentlarning ta'sirini o'rganish, qo'llaniladigan kislota samaradorligini baholash, eritmaga o'tkazish koeffitsiyentining sulfat kislota konsentratsiyasiga bog'liqligini o'rganish, Q:S (qattiq:suyuq) nisbatning optimal qiymatini tanlash, ushbu rudalarning granulometrik tarkibi va geotexnologik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, rekultivatsiya usullaridan foydalangan holda ushbu rudalarning fizik xususiyatlarini baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya

tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining  $\Phi A-A_{\text{Tex}}$  -2018-233 – «Radonning hajmiy faolligi va muhitdagi radiy miqdorini o‘lchash uchun katta diametrlilik kremniy sirt-to‘siq detektorli radiometrni ishlab chiqarish va asoslash» va Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqotlari rejasi doirasida – BA-A-13-015 – «Mahalliy reagentlardan foydalangan holda uranni yer ostida tanlab eritishning texnologik rejimini ishlab chiqish» mavzularidagi amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Qizilqum uran qazib olish sanoat hududlaridagi ikkilamchi texnogen ma’danlarning geologik, mineralogik va texnologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mineral xomashyoni qayta ishlash samaradorligini oshirish va ekologik yuklamani kamaytirish uchun uranni ajratib olishning ilmiy asoslangan texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha adabiyotlarni tahlil qilish;

texnologik jarayon parametrlarini tanlash uchun ikkilamchi texnogen rudalarning fizik-mexanik (g‘ovaklik, zichlik, qattiqlik, donadorlik, fraktal o‘lcham) va radiatsion (radionuklidlar tarkibi, radionuklidlarning o‘ziga xos faolligi, solishtirma effektiv faollik  $-A_{\text{eff}}$ , ekvivalent doza quvvati) xususiyatlarini tadqiq qilish;

ikkilamchi texnogen rudalardan uranni eritmaga o‘tkazish jarayoniga turli reagentlarning ta’sirini tadqiq qilish;

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish koeffitsiyentining sulfat kislota konsentratsiyasiga bog‘liqligini tadqiq qilish;

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish uchun Q:S nisbatning optimal qiymatini tadqiq qilish;

ikkilamchi texnogen rudalar granulometrik tarkibining geotexnologik ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligini tadqiq qilish;

qo‘shimcha uran olish imkoniyatini ta’minlash maqsadida ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasi samaradorligini tahlil qilish;

rekultivatsiya usullari yordamida ikkilamchi texnogen rudalarning fizik xossalari tahlil qilish;

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida ikkilamchi texnogen rudalar, uran olishning texnologik usullari, geotexnologik ko‘rsatkichlar va uranni eritmaga o‘tkazish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasini ishlab chiqish va radioaktiv ko‘rsatkichlar qiymatini kamaytirish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy fizik-kimyoviy geotexnologik usullardan, ikkilamchi texnogen rudalardan uranni eritmaga o‘tkazish nazariyasi va amaliyoti, o‘rganilayotgan namunalarni tahlil qilishning yadro fizikaviy usullaridan, granulometrik tahlil, tajriba natijalarni

matematik qayta ishlash usullari, laboratoriya va sanoat tajriba sinov usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ikkilamchi texnogen rudalardan uranga boy sinflarni granulometrik usulda ajratish asosida ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasining prinsiplial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan;

uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarda 87,5 % uran qumli-gil tuproq tarkibidan uranni yaxshi eritmaga o'tkazish uchun ijobiy hal qiluvchi omil hisoblangan yaxshi g'ovaklik va o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan kichik o'lchamli granula-zarrachalar tarkibida mujassamlashgan bo'lishi va bu o'lchamdagi rudalarning massasi umumiy massaning 69 % ni tashkil etishi aniqlangan;

qayta ishlashga jalb qilingan uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalar umumiy massasining 31 % ni katta o'lchamli granula-zarrachalar tarkibli uran miqdori kam bo'lgan rudalar tashkil etishi va ularni groxot yordamida mexanik ajratish yo'li bilan jarayondan olib tashlash mumkinligi eksperimental aniqlangan;

ikkilamchi texnogen rudalar qatlamlarida uranning vertikal taqsimlanishi ularning saqlanish muddatiga chiziqli bog'liqligi, ya'ni eski uran otvallari quyi qismlarida uran ko'proq va yangi uran otvallarining butun hajmi bo'ylab uranning bir xil taqsimlanishi aniqlangan;

ikkilamchi texnogen rudalardan uranni maksimal ajratib olish jarayonida qattiq va suyuqlikning (Q : S) optimal nisbatini tanlashda bu nisbat - 1:2 ga teng ekanligi eksperimental aniqlangan;

uranni uyumda eritmaga o'tkazishdagi asosiy geotexnologik parametr - uranga boy sinflardan tarkibida kislotalarni yaxshi yutuvchi minerallarga ega tarkibli uran miqdori kam bo'lgan tog' jinslarini ajratib tashlash hisobiga rudalarni kislotalash jarayoni vaqtini kamaytirish imkoniyatlari topilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologik prinsiplial sxemasida groxot foydalanish asosida katta o'lchamli rudalarni kichik o'lchamli rudalardan ajratish yo'li topilgan;

ikkilamchi texnogen rudalar tarkibidagi kambag'al uran tarkibli qum - gilli qismini tadqiq qilishning granulometrik usuli topilgan;

ikkilamchi texnogen rudalardagi uranning hajmiy taqsimlanishini o'rganish asosida uran chiqindilarining yuqori qatlamlaridan foydalanmaslik va ularning yarmidan pastki qismlaridan foydalanish tavsiyasi ishlab chiqilgan;

ikkilamchi texnogen rudalar uyumining kislotalanish vaqtini kamaytirish yo'li topilgan;

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologik sxemasini qo'llash natijasida bu rudalarni rekultivatsiya qilish imkoniyati topilgan;

uran chiqindilari joylashgan hududning radiatsion holatini baholash usullari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi aniq qo'yilgan vazifa asosida laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlarining yetarli va statistik jihatdan asoslangan hajmi; ishlab chiqilgan uran olish texnologiyasini tajriba sharoitida sinovdan o'tkazishda olingan ijobiy natijalar; olingan natijalarning

yaqinlashishi va miqdoriy tasdiqlanishi; ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologiyasi «NKMK» AJ obyektlarida ishlab chiqilgan texnologiyani tajriba-laboratoriya sinovidan o'tkazish va joriy etish bo'yicha olingan ijobiy dalolatnoma bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi fizik-kimyoviy va radiatsiyaviy xususiyatlarini o'rganish bilan belgilanadi. Ushbu natijalar ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish geotexnologik usullarining fizik-kimyoviy asoslari nazariyasiga qo'shilgan hissa bo'lib, ushbu rudalarni qazib olishning ilmiy asoslarini nazariy umumlashtirish va ishlab chiqish asosida olingan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo'sh tog' jinslaridan mahsuldor boy sinfni granulometrik ajratish asosida ikkilamchi texnogen rudalardan uranni ajratib olishning prinsipl texnologik sxemasini tuzish bilan tavsiflanadi va uyumda eritmaga o'tkazishning asosiy geotexnologik parametriga bog'liq holda ikkilamchi texnogen rudalardan uranni ajratib olishda, bo'sh tog' jinslari tarkibida mavjud bo'lgan kislota yutuvchi minerallarni kamaytirish hisobiga rudalarni kislotalash jarayoniga sarflangan vaqtni kamaytirishga asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ikkilamchi texnogen rudalardan uranni ajratib olish texnologiyasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish texnologik prinsipl sxemasida asosiy ishchi qism sifatida groxotdan foydalanish Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasining uran geotexnologiyasi laboratoriyasida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ 2024-yil 2-iyuldagi № 23/01-01-07/339-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ikkilamchi texnogen rudalarning katta o'lchamli granulalar sinfini kichik o'lchamli granulalar sinfidan ajratish imkonini bergan;

ikkilamchi texnogen rudalar tarkibidagi uranni o'zida kam saqlagan qum - gilli qismni tadqiq qilishning granulometrik usuli «NKMK» AJ uran geotexnologiyasi laboratoriyasida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ 2024-yil 2-iyuldagi № 23/01-01-07/339-son ma'lumotnomasi). Natijada, uran umumiy miqdorining 12,5 % dan kam qismini o'zida saqlovchi ikkilamchi texnogen rudalarni qayta ishlash jarayoniga jalb qilmaslik imkonini bergan;

ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish jarayonida umumiy massaning 2/3 qismini qayta ishlashga jalb qilish tavsiyasi «NKMK» AJ uran geotexnologiyasi laboratoriyasida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ 2024-yil 2-iyuldagi № 23/01-01-07/339-son ma'lumotnomasi). Natijada, ikkilamchi texnogen rudalardan 85 % dan ortiq uran olish imkonini bergan;

ikkilamchi texnogen rudalardagi uranning hajmiy taqsimlanishini o'rganish asosida uran chiqindilarining yuqori qatlamlaridan foydalanmaslik tavsiyasi «NKMK» AJ uran geotexnologiyasi laboratoriyasida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ 2024-yil 2-iyuldagi № 23/01-01-07/339-son ma'lumotnomasi). Natijada, uran chiqindilaridan uranni eritmaga o'tkazish jarayoniga ularning yarmidan pastki qismini jalb qilish imkonini bergan;

ikkilamchi texnogen rudalar uyumining kislotalanish vaqtini kamaytirish imkoniyati 2018-2020 yillarda «NKMK» AJ uran geotexnologiyasi laboratoriyasi

tomonidan Uchquduq geotexnologik konida uranni uyumda eritmaga o'tkazish jarayonida joriy etilgan («Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ 2024-yil 2-iyuldagi № 23/01-01-07/339-son ma'lumotnomasi). Natijada, ikkilamchi texnogen rudalar uyumining kislotalanish vaqtini 12 % gacha kamaytirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 13 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 43 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 16 ta maqola, shu jumladan: 8 ta respublika va 8 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan, 3 ta elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturga guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish qismida** tadqiqotning dolzarbligi va unga bo'lgan talab, tadqiqotning maqsad va vazifalari asoslab berilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

**«Ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishning fizik-kimyoviy geotexnologiyasi rivojining hozirgi holati»** deb nomlangan birinchi bobda butun dunyo bo'ylab mavjud geotexnologik usullarning hozirgi holati, uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishda foydalaniladigan texnologik sxemalar va murakkab qurilmalar har tomonlama o'rganildi. Tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi rudalardan uranni eritmaga o'tkazish usullari, uran chiqindilarining fizik-kimyoviy va radiatsion tarkibini o'rganish usullari va tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalarning radiatsiyaviy ko'rsatkichlarini pasaytirish bo'yicha tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Dissertatsiya ishi doirasida hal qilinishi kerak bo'lgan geotexnologik muammolar asoslab berildi.

**«Ikkilamchi texnogen rudalarning fizik-mexanik va radiatsiyaviy xossalari tadqiq qilish»** deb nomlangan ikkinchi bobda fizik-kimyoviy va radiatsiyaviy xossalari bilan farq qiluvchi ikkilamchi texnogen rudalarning tarkibi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ikkilamchi texnogen rudalarning tarkibi ko'p komponentli tuzilma bo'lib, ular tarkibiy qismlarining xususiyatlari va bog'lanish usullari bilan farqlanadi. Ikkilamchi texnogen rudalar turli kon va gidrogeologik sharoitlarga ega. Shuning uchun ishning birinchi bosqichida ularning tarkibiy tuzilishi, fizik-kimyoviy, kimyoviy-texnologik va fizik-mexanik xususiyatlarini batafsil o'rganilishi talab etiladi.

Ikkilamchi texnogen rudalarning tarkibi va xususiyatlari ishchi reagentlardan foydalanish samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi sababli, ularni o'rganishga alohida e'tibor berish kerak.

Ikkilamchi texnogen rudalar texnologik rejim parametrlarini tanlash uchun fizik-mexanik (g'ovaklik, zichlik, donadorlik, qattiqlik) va radiatsiyaviy (har bir radionuklidning solishtirma faolligi, solishtirma effektiv faollik, ekvivalent faollik quvvati) xususiyatlarini bilish zarur.

Qizilqum mintaqasining ikkilamchi texnogen rudalari asosan cho'kindi tog' jinslardan iborat bo'lib, ular o'zining yumshoqligi (qum, shag'al, shag'al toshlar), plastik (gil, gilli tuzilma) va magmatik (ohaktosh, dolomit, qumtosh, alevrolit, konglomerat va boshqalar) xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Qizilqum mintaqasining ikkilamchi texnogen rudalari qumtosh-gilli bo'lib, ular yaxshi g'ovaklik va o'tkazuvchanlikka ega, bu esa uranni eritmaga o'tkazishda ijobiy hal qiluvchi omil hisoblanadi. Qoidaga ko'ra, g'ovaklik va o'tkazuvchanlik qancha yuqori bo'lsa, uranni eritmaga o'tkazish jarayoni shuncha tezroq bo'ladi. 1-jadvalda o'rganilayotgan tog' jinslarning g'ovakligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Ba'zi o'rganilayotgan tog' jinslarning g'ovakligi va o'tkazuvchanligi haqidagi ma'lumotlar

No	Tog' jinslari	G'ovaklik, %	Filtrlash koeffitsiyenti, m/kun
1	Granitlar	1,2	0,006-2,0
2	Kvarsitlar	1,0	0,013-0,051
3	Ohaktoshlar	0,53-13,4	0,5 dan kam
4	Qumtoshlar	4,8-29,0	0,0005-3,0
5	Gillar	6,9-50,0	0,005 dan kam
6	Qumlar	6,0-52,0	0,1-100
7	Qumloq	0,5-0,7	0,1-0,7
8	Nam qum (Suglinok)	52,0-55,0	0,005-0,4

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, barcha tog' jinslari u yoki bu darajada g'ovakdir. Gillar, qumlar va qumtoshlar ayniqsa yuqori g'ovaklikka ega. Ammo gilda asosan yopiq g'ovaklar bo'ladi, ya'ni ular bir-biri bilan bog'lanmagan bo'ladi. Qoplovchi tog' jinslari juda g'ovakdir. Chuqurlik oshgani sayin qoplovchi tog' jinslarining g'ovakligi kamayadi. G'ovaklik donalarning shakli va hajmiga, ularning yumaloqlik darajasiga, bo'laklar va donalarning siqilishiga va sementlanishiga bog'liq.

Tog' jinslarining radioaktivligi ulardagi U, Th, Ra, K kabi radioaktiv elementlarning miqdori bilan belgilanadi. Ushbu radioaktiv elementlarning tog' jinslari tarkibidagi miqdori ularning solishtirma faollik, solishtirma effektiv faollik, natijaviy solishtirma alfa-faollik va gamma-nurlanishning ekvivalent miqdori quvvati kabi radiatsiya ko'rsatkichlarini belgilaydi. Bundan tashqari, tog' jinslari radioaktiv elementlarning parchalanish mahsulotlarini, radionuklidlarni o'z ichiga oladi. Ular tog' jinslarida bir qancha radioaktiv gazlarni hosil qiladi. Uranning

parchalanish zanjiridagi bu radioaktiv gazlardan asosiysi radon - Rn. U radiogen bo‘lib, radioaktiv konlarning halolarida to‘planadi. 2-jadvalda ikkilamchi texnogen rudalarning radiatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

2-jadval


Ikkilamchi texnogen rudalarning radiatsiya ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar

Namunalar	Ikkilamchi texnogen rudalar radionuklidlarining solishtirma faolligi, Bq/kg			$A_{\text{eff}}$ , Bq/kg	Tuproqning natijaviy solishtirma alfa faolligi, Bq/kg	gamma-nurlanish EMQ, $\mu\text{Zv}/\text{soat}$
	$^{40}\text{K}$	$^{226}\text{Ra}$	$^{232}\text{Th}$			
1(16)	1253	2423	70	2627	24282	4,12
2(15)	841	1494	32	1612	13266	3,84
3(14)	837	1014	33	1133	14184	2,82
4(17)	961	395	36	528	3948	1,39
5(7)	737	3847	26	3948	21665	3,92
6(9)	933	2625	34	2754	15712	3,44
7(6)	786	2097	38	2217	19642	3,26
8(10)	1200	1480	65	1673	18118	2,40
9(12)	990	3402	56	3564	20880	2,12
10(11)	1239	2237	62	2430	16180	1,60
11(11a)	1710	2589	79	2846	16228	2,82
12(11b)	979	2416	46	2564	21557	3,58
13 (15PU)	946	922	47	1069	28319	5,20

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, ikkilamchi texnogen rudalarning o‘rganilgan 13 ta namunalarida radiatsiya ko‘rsatkichlari ya‘ni: solishtirma faollik, solishtirma effektiv faollik-  $A_{\text{eff}}$ , natijaviy solishtirma alfa-faollik va gamma-nurlanishning ekvivalent miqdori quvvati turli qiymatlarga ega. Ya‘ni, 1-namuna uchun solishtirma faollik -  $^{40}\text{K}$  uchun 1253 Bq/kg,  $^{226}\text{Ra}$  uchun 2423 Bq/kg,  $^{232}\text{Th}$  uchun 70 Bq/kg, solishtirma effektiv faollik- $A_{\text{eff}}$  2627 Bq/kg, natijaviy solishtirma alfa-faollik 24282 Bq/kg va gamma-nurlanishning ekvivalent miqdori quvvati 4,12  $\mu\text{Zv}/\text{soat}$ ga teng.

Bundan tashqari, uranning chuqurlikdagi taqsimoti o‘rganildi. Tanlangan namunalaridagi uran konsentratsiyasining qiymatlarini aniqlash uchun solishtirma effektiv faollik -  $A_{\text{eff}}$  qiymatlari aniqlandi. Ikkilamchi texnogen rudalarning har bir nuqtasidan namuna olishda turli chuqurliklardan (0,25 m; 0,5 m; 0,75 m va 1,0 m) olinishiga e‘tibor qaritildi va ulardagi solishtirma effektiv faollik -  $A_{\text{eff}}$  qiymatlari aniqlandi. Namunalardan olingan natijalar asosida solishtirma effektiv faollik- $A_{\text{eff}}$  qiymatining chuqurlikka bog‘liqlik grafigi chizildi (1-rasm).

1-rasmdan ko‘rinib turibdiki turli chuqurliklardan olingan namunalar uchun solishtirma effektiv faollik-  $A_{\text{eff}}$  qiymati: 1- namuna uchun 9,8 dan 1,9 kBq/kg gacha, 2- namuna uchun 7,5 dan 1,5 kBq/kg gacha va 3-namuna uchun 4,2 dan 1,0 kBq/kg gacha oraliqda kamayadi. Bu fakt barcha namunalar uranni qazib olish geotexnologik jarayonida texnogen hosil bo‘lgan uran rudalari hududidan olinganligini tasdiqlaydi.



**1-rasm. Namuna solishtirma effektiv faollik- $A_{\text{eff}}$  qiymatining chuqurlikka bog‘liqligi grafigi**

Shunday qilib, ikkilamchi texnogen rudalar fizik-mexanik va radiatsiyaviy xossalari tadqiq qilish asosida bu texnogen rudalardan qo‘shimcha holda uran olish imkoniyati mavjudligi tasdiqlandi.

Ikkilamchi texnogen rudalarning o‘rganilgan fizik-mexanik va radiatsion xossalari, Q:S nisbat, ishchi eritmaning konsentratsiyasi, uranni tanlab ertish vaqti va texnologik rejimning radiatsiya parametrlarini tanlash uchun asos bo‘ladi.

**«Fizik-kimyoviy geotexnologik usul bilan ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish jarayoniga tahliliy namuna tanlash va jarayonga tayyorlash usullari»** deb nomlangan uchunchi bobda tarkibida uran miqdori kam bo‘lgan rudalarni uranga boy rudalardan mexanik, elektromagnit, sentrafuga va boshqa usullar bilan ajratish uslublari bilan bir qatorda analitik usullar hamda uranni aniqlashda foydalaniladigan instrumental laboratoriya qurilmalari ham tadqiq qilindi.

Uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalardan tanlab olingan 120 ta namunada uran konsentratsiyasi ARF-7 rentgenofluoressensiya spektrometri (Rossiya) yordamida aniqlandi. Ushbu spektrometr 40 dan ortiq elementlarning konsentratsiyasini aniqlaydi (Be dan U gacha). Bundan tashqari, uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning ushbu 120 ta namunalarida GAMMA-PROGRESS markali gamma-spektrometr yordamida gamma-spektrometrik tahlil usuli bilan tabiiy radionuklidlarning solishtirma faolligi aniqlandi.

Ikkilamchi texnogen rudalardan uranni ajratib olishning fizik-kimyoviy geotexnologik usuli turli kislotalarning suvli eritmaları yordamida uranni qattiq holatdan suyuqlikka aylantirishga asoslangan. Uranni ajratib olish koeffitsiyenti dastlabki namunalardagi uran tarkibiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri proporsionaldir. Ushbu faktdan kelib chiqib, tadqiqot doirasida fizik-kimyoviy geotexnologiya usulidan foydalangan holda qayta ishlashga jalb qilingan rudalarning mahsuldor navlarining massa miqdorini oshirishga maksimal darajada e‘tibor qaratilgan.

Mahsuldor ruda navlarining massa ulishini ortishi va kon massasini saralangan ruda bo‘lagi o‘lchamlaridan saralashda mahsuldor navlarning hosildorligiga ta‘sirini aniqlash uchun tadqiqotlar o‘tkazildi. Tadqiqot natijasida, +25 va -25 mm sinfli ruda

o'lchamlarini har biri taxminan 50 % bo'lgan ikki bo'lakka bo'linganligi aniqlandi, bunda o'lchami -25 mm bo'lgan ruda bo'laklaridagi uran miqdori o'lchami +25 mm bo'lgan ruda bo'laklaridagi uran miqdoridan 50 % ko'pdir. O'lchami -25 mm bo'lgan fraksiyada taxminan 70 % ga yaqin uran olinadi. Tadqiqot jarayonida ikkilamchi texnogen rudalarda uranning fraksiyalar bo'yicha taqsimlanishini o'rganish jarayonida uran olishning fizik-kimyoviy geotexnologik usuli samaradorligiga salbiy ta'sir qiluvchi asosiy omil – rudalar va tog' jinslari tarkibida kremniy oksidi ( $\text{SiO}_2$ ) ning mavjud bo'lishi ekanligi aniqlandi. Tog' jinslari va rudalar tarkibidagi kremniy oksidi ( $\text{SiO}_2$ ) miqdorini aniqlashning analitik formulasi quyidagicha:

$$\gamma = \frac{\alpha}{0,38+0,002\alpha+0,0001\alpha^2} \quad (1)$$

bu yerda,  $\alpha$  -  $\text{SiO}_2$  miqdori, %.

Laboratoriya tadqiqotlari jarayonida tarkibida 0,032 % uran bo'lgan 300,0 kg ikkilamchi texnogen ruda qayta ishlanadi va fraksiyalarni ajratish texnologiyasi asosida undagi uran miqdori 1,67 barobarga oshirilib, 0,053 % ga yetkazildi.

Ushbu ma'lumotlar asosida 10 g/l sulfat kislota konsentratsiyali eritmada faol eritmaga o'tkazish rejimida uranni eritmaga o'tkazish dinamikasi o'rganildi. Ushbu jarayonning analitik formulasi quyidagicha

$$\gamma_U = \frac{t}{0,84 + 0,01t} \quad (2)$$

bu yerda  $t$ -uranni eritmaga o'tkazish vaqti, soat.


Tadqiqotlar davomida tarkibida 0,030-0,050 % uran bo'lgan rudani eritmaga o'tkazish orqali 80-82 % uran ajratib olinganda 1 kg ajratib olingan uran uchun sulfat kislota sarfi 25-30 kg ekanligi aniqlandi.

Ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishda samarali fizik-kimyoviy geotexnologik usulni ishlab chiqish davomida uran tarkibli namunalarda uranning taqsimlanishi o'rganildi. Tabiiy radionuklidlarning solishtirma faolligini aniqlashning gamma-spektrometrik usuli instrumental usul hisoblanib, murakkab namuna tayyorlash jarayonlarini talab qilmaydi.


Gamma-spektrometrik tahlil usuli asosida, tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalardagi ba'zi tabiiy radionuklidlarning solishtirma faolligi aniqlandi (2 a,b-rasmlar).

2 a va 2 b-rasmlardan ko'rinib turibdiki gamma-spektrometrik tahlil usuli yordamida ikkilamchi texnogen ruda namunalardagi barcha tabiiy radionuklidlarning solishtirma faolligini aniqlash mumkin.

Uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning rentgenofluoretsent tahlilini amalga oshirish orqali, qiymatlari 3-jadvalda keltirilgan 10 ta namuna tarkibidagi uran miqdori aniqlandi. Aniqlangan uran miqdorining to'g'riligini tasdiqlash uchun har bir o'lcham uchun 4 tadan parallel namuna olindi va ulardagi uran miqdori aniqlandi.



**2a-rasm. Faolligi past bo‘lgan uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning gamma-spektrometrik tahlil spektri**



**2b-rasm. Faolligi yuqori bo‘lgan uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning gamma-spektrometrik tahlil spektri**


3-jadvalda keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarda uran miqdori 123 g/t dan 229 g/t gacha oraliqda o‘zgaradi. Uran miqdorini aniqlashdagi usul xatoligi  $\pm 3,5\%$  dan oshmaydi. Uranni aniqlashning ushbu usuli ikkilamchi texnogen rudalarga mos keladi va metrologik o‘lchov talablariga to‘liq javob beradi.

3-jadval

Ikkilamchi texnogen rudalar 10 ta namunalarining rentgenofluoretsent tahlili

Namuna №	Parallel namunalardagi uran miqdori, (g/t)				U <sub>o‘r</sub> , g/t
	1	2	3	4	
1	138	133	134	137	136
2	135	130	134	131	132
3	124	129	131	132	129
4	161	159	167	160	162
5	119	121	127	123	123
6	138	141	139	137	139
7	153	149	147	156	151
8	143	139	142	145	142
9	213	216	214	219	215
10	224	229	231	232	229

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, otvaldagi rudalarning parchalanishi jarayonida ikkilamchi texnogen rudalardagi uranning vertikal taqsimlanishi sezilarli darajada o‘zgaradi. Turli xil tabiiy jarayonlar ta’sirida otvalning yuqori qatlamlarida mavjud bo‘lgan uran eriydi va yong‘ir suvlari ta’sirida chiqindixonaning pastki gorizontlariga o‘tadi. Ushbu ta’sirlar natijasida otvallarda uran bilan boyigan texnogen cho‘kindilar zonasi hosil bo‘ladi. Otvallardagi uran migratsiyasi jarayoni sababli yuqori gorizontlardagi uran miqdori kamayadi. Otvalning pastki qismida esa uran miqdori ortib boradi. Ushbu tushuntirishlarni 3-rasmdagi sxematik shaklda aks ettirish mumkin.



1 – otvalning tabiiy parchalanish natijasida hosil bo‘lgan qatlami;  
 2 – otvalning kimyoviy parchalanish qatlami; 3 – texnogen cho‘kindilar qatlami  
**3-rasm. Turli tabiiy jarayonlar ta‘sirida uran tarkibli otvalning shakllanishining sxematik ko‘rinishi**

3 - rasmdan ko‘rinadiki 1 - uran tarkibli otvalning yuqori qatlami tabiiy ob-havo ta‘sirida hosil bo‘ladi va uning taxminiy qalinligi 5 - 6 metrdan kamroq. Bu qatlamda uran miqdori quyi qatlamlarga qaraganda 30 - 40 % kamroq. Birinchi qatlam ostida 2 - qatlam hosil bo‘ladi va u kimyoviy parchalanish qatlami deb ataladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, bu qatlamdagi uran miqdori 0,015 dan 0,032 % gacha bo‘lib, fizik-kimyoviy geotexnologik usuldan foydalanib, mahsuldor sinfni ajratib olish bilan qayta ishlashga mos keladi. Texnogen cho‘kindili 3 - qatlamda tarkibi 0,12 % dan ortiqroq uran bilan boyigan ruda mavjud. Ushbu rudani dastlabki tayyorgarlik ishlarisiz gidrometallurgik texnologiya (GMT) yordamida qayta ishlash mumkin.

Uran tarkibli ikkilamchi texnogen uchta obyektidagi: yer ostida eritmaga o‘tkazish maydonlari, chiqindi saqlash omborlari va uran tarkibli otvallardagi uran miqdori aniqlandi (4-jadval).

4-jadval


Yer ostida eritmaga o‘tkazish maydonlari, chiqindi saqlash omborlari va uran tarkibli otvallarda uranning fraksiyalar bo‘yicha taqsimlanishi

№	Ruda o'lchamu, mm	Yer ostida eritmaga o‘tkazish maydoni			Chiqindi saqlash omborlari			Uran tarkibli otval		
		Massasi, kg	Ulishi, %	U <sub>um</sub> , g/t	Massasi, kg	Ulishi, %	U <sub>um</sub> , g/t	Massasi, kg	Ulishi, %	U <sub>um</sub> , g/t
1	-200+100	8,6	4,5	8,16	5,5	4,1	8,9	12,6	2,2	7
2	-100+50	9,2	3,8	6,84	3,9	4,2	9,2	4,9	4,1	13,1
3	- 50+25	10,3	5,3	9,6	5,3	6,3	13,6	13,5	6,2	19,9
4	-25+10	15,5	7,6	13,7	8,4	8,8	19,1	22,1	8,5	27,2
5	-10+5	9,3	9,4	17	4,9	9,7	21,1	10,7	9,6	30,8
6	-5+3	4,9	10,5	19	2,5	9,8	21,3	5,6	10,2	32,7
7	-3+2	4,6	12,3	22,2	1,6	12,7	27,6	4,3	10,7	34,3
8	-2+1	3,9	23,2	41,9	2,7	20,2	43,8	5,4	23,2	74,3
9	-1+0	15,3	23,4	42,3	6,3	24,3	52,7	20,9	25,3	81,1
Umumiy		81,6	100,0	180,7	41,1	100	217,3	100	100,0	320,4

«Ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishda tavsiya etilgan fizik-kimyoviy geotexnologik sxema» deb nomli to‘rtinchi bobda tarkibida uran bo‘lgan ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishning taklif etilayotgan fizik-kimyoviy

geotexnologik sxemasi, uning ishlash prinsipi, tarkibiy qismlari va ushbu sxemaning samaradorligini baholash imkoniyatlari ko'rsatilgan.

5-rasmda tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalardan uranni ajratib olishning taklif etilayotgan asosiy fizik-kimyoviy geotexnologik sxemasi, uning tarkibiy qismlari va ishlash usuli keltirilgan.



**5-rasm. Tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishning asosiy fizik-kimyoviy geotexnologik sxemasi**

Tarkibida uran bo'lgan ikkilamchi texnogen rudalardan uran olishning tavsiya etilgan fizik-kimyoviy geotexnologik prinsipal sxemasi va uning ishlash prinsipi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Uranning parchalanish zanjiri bo'lgan  $^{238}\text{U}$ ,  $^{234}\text{U}$ ,  $^{235}\text{U}$ ,  $^{232}\text{Th}$ ,  $^{226}\text{Ra}$  radionuklidlardan iborat texnogen uran rudalari – (1) bunkerga joylanadi, so'ngra groxot (2) yordamida ikkilamchi rudaning katta o'lchamli sinfi kichik o'lchamli sinfidan ajratiladi, ikkilamchi texnogen rudaning tarkibida uran miqdori kam bo'lgan katta o'lchamli sinflari konveyer tasmasi (3) yordamida chiqindixonaga chiqariladi, uranga boy tarkibli kichik o'lchamli sinf rudalari idishda (4) yig'iladi, ( $\text{H}_2\text{O}+\text{H}_2\text{SO}_4$ ) aralashmali ishchi eritmasi (5) va ikkilamchi texnogen uran rudasi eritish uchun pachukga (6) yuklanadi, pachukdagi  $\text{H}_2\text{SO}_4$  sulfat kislota konsentratsiyasi –10 g/l ga teng, Q:S nisbati 1:2. Pachuk (6)ga yuklangan ushbu aralashma 1 soat davomida aralashtiriladi, aralashtirish natijasida olingan bo'tana filtrlash uchun yuboriladi (7). Filtrlash jarayonida ajratib olingan qattiq faza (8) tarkibidagi kislotasini kamaytirish uchun suv bilan yuviladi va radionuklidlardan (10) tozalangan ushbu faza karerga tashlanadi. Qattiq fazani suv bilan yuvish natijasida hosil bo'lgan suyuq faza (9) uranli eritmani yig'ish uchun

idishga (11) yig'iladi. 3 marta qayta foydalanishdan so'ng uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarni qayta ishlash jarayonida hosil bo'lgan ishchi eritma mahsuldor eritmani yig'ish uchun mo'ljallangan idishga (11) yig'iladi va so'ngra sorbsiyalash jarayoniga (12) yuboriladi. Uran tarkibli ikkilamchi texnogen rudalarning ikkinchi partiyasi va undan keyingi partiyalar shu ketma-ketlikda qayta ishlanadi.

Ikkilamchi texnogen rudalardan kambag'al uran tarkibli rudalarni texnologik jarayondan chetlashtirish masalalari har tomonlama o'rganildi. Bizga ma'lumki, ikkilamchi texnogen rudalarda uran bir tekis taqsimlanmagan. Ikkilamchi texnogen rudalarni qayta ishlashda bu rudalar tarkibidagi uran bo'lmagan qismlarni chiqindi tog' jinsi sifatida chiqarib tashlash mumkin. Ushbu qismni olib tashlash uchun uran rudasining zarrachalar o'lchami bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi aniq ma'lumotlar talab qilinadi. Granulometrik tahlil bizga namunadagi zarrachalar o'lchami bo'yicha uranning taqsimlanishi haqida ma'lumot olish imkonini beradi. Zarrachalar o'lchami taqsimoti bo'yicha o'lchov natijalari odatda differensial va integral bog'liqlik shaklida taqdim etiladi. Bu usul namunadan lazer nuri o'tganda tarqalgan yorug'lik intensivligini o'lchashga asoslangan. Zarrachalar o'lchamini tahlil qilish uchun elak usuli, lazer diffraksiya usuli va boshqa usullar mavjud.

Texnogen ikkilamchi uran rudalarida zarrachalar o'lchamining granulometrik taqsimlanishini aniqlash uchun Mastersizer 3000 markali lazerli difraksion analizatoridan foydalanildi. Ushbu analizator zarrachalar o'lchamini 0,01 mikrondan 3500 mikrongacha oraliqda aniqlay oladi.

Ikkilamchi texnogen uran otvallaridan olingan namunalarda uranning taqsimlanishi o'rganildi (5-jadval). Olingan natijalardan ma'lum bo'ldiki, zarrachalar o'lchamlarining (-200+100) mm, (-100+50) mm, (-50+25) mm, (-25+10) mm, (-10+5) mm, (-5+3) mm, (-3+2) mm, (-2+1) mm, (-1+0) mm kamayishi bilan ulardagi uran miqdori 7 g/t dan 81,1 g/t gacha ortadi. Bundan tashqari, (-25+10) mm, (-10+5) mm, (-5+3) mm, (-3+2) mm, (-2+1) mm, (-1+0) mm kichik sinfli uranli rudalar tarkibida jami uranning 87,5 % mavjud. Bu sinflarning umumiy massasi namuna umumiy massasining 69 % ni tashkil qiladi. Ushbu tadqiqotdan ma'lum bo'ldiki, fizik-kimyoviy geotexnologik usul yordamida qayta ishlanadigan uranli rudalar tarkibidan 12,5 % uran bo'lgan 31 kg og'irlikdagi kambag'al rudani chiqarib tashlash mumkin. Qayta ishlash uchun tarkibida 280,4 g/t bo'lgan uran rudalaridan foydalanish mumkin.


5-jadval

Uran chiqindilaridan olingan o'rtacha namunalarni granulometrik tahlil natijalari

№	Zarrachalar o'lchami, mm	Massasi, kg	Ulushi, %	U <sub>jami</sub> , g/t
1	-200+100	12,6	2,2	7,0
2	-100+50	4,9	4,1	13,1
3	- 50+25	13,5	6,2	19,9
4	-25+10	22,1	8,5	27,2
5	-10+5	10,7	9,6	30,8

6	-5+3	5,6	10,2	32,7
7	-3+2	4,3	10,7	34,3
8	-2+1	5,4	23,2	74,3
9	-1+0	20,9	25,3	81,1
	Jami	100	100,00	320,4

Olingan natijalarning aniqligi uchun o'tkazilgan tadqiqotlar asosida uranning mahsuldor navlarining o'lcham sinflari bo'yicha taqsimlanishining grafik bog'liqligi chizildi (6-rasm). Mahsuldor navlardagi uran miqdorining qiymati uranning Klark qiymati bilan taqqoslandi. Ma'lumki, Klark qiymati bo'yicha Yer qobig'idagi uran 80,0 g/t ni tashkil qiladi. Namunalardagi granula fraksiyalarda uran miqdori 7 g/t dan 81,1 g/t gacha o'zgardi.



### 6-rasm. Uran mahsuldor navlarining fraksiyalar bo'yicha taqsimlanishi

Ikkilamchi texnogen uran rudalarida uranning granulometrik taqsimlanishini o'rganish asosida kichik sinflar, ya'ni -25 dan -1 mm gacha o'lchamli rudalarda uranning miqdori maksimal degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Olingan ma'lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, ikkilamchi texnogen uran rudalaridan uran olishning taklif etilayotgan fizik-kimyoviy geotexnologik sxemasi qo'shimcha uran ishlab chiqarish uchun istiqbolli va nazariy jihatdan asoslangan samarali usul hisoblanadi.

Ushbu texnologik sxemaning maqbulligini o'rganish uchun ikkilamchi texnogen rudalarda tajriba o'tkazildi. Dastlab namunalar taklif etilgan sxema bo'yicha eritmaga o'tkazish jarayonidan o'tdi.

Shundan so'ng quritish shkafida quritilgan namuna tarkibidagi uran miqdori aniqlandi. 6-jadvalda dastlabki va qayta ishlangandan keyingi namunalardagi uran miqdori qiymatlari keltirilgan.


Ikkilamchi texnogen ruda namunalaridagi dastlabki hamda qayta ishlagandan keyingi uran miqdori

No	Dastlabki namunalardagi uran miqdori, g/t	Qayta ishlashdan keyin namunalardagi uran miqdori, g/t	Ajratib olingan uran, g/t	Uran olinish ulushi, %
1	318,6	43,0	275,6	86,5
2	324,3	40,5	283,8	87,5
3	342,7	47,3	295,4	86,2
4	319,8	45,1	274,7	85,9
5	332,0	44,8	287,2	86,5
6	328,6	42,1	286,5	87,2
7	346,2	48,8	297,4	85,9
8	354,4	48,2	306,2	86,4
9	328,5	42,4	286,1	87,1
10	315,7	44,8	270,9	85,8
11	345,6	44,6	301	87,1
12	326,7	38,9	287,8	88,1

7-rasmdan ko‘rinib turibdiki dastlabki namunalardagi 315,7 dan 354,4 g/t gacha bo‘lgan uran miqdorining o‘zgarishi qizil rang bilan, qayta ishlangandan keyin namunalarda uran miqdori 38,9 dan 48,8 g/t gacha kamayishi esa yashil rang bilan ko‘rsatilgan. Ushbu qiymat Klark soni qiymatidan kichikdir. Ko‘k ustun bilan ajratib olingan uran miqdori ko‘rsatilgan.

Taklif etilgan texnologik sxema asosida dastlabki namuna tarkidagi uranni 70 % gacha kamaytirish imkoni mavjud ekan.

Bundan tashqari ishchi eritma tarkibi ham tadqiq qilindi. 7-jadvalda ikkilamchi texnogen uran rudalarini eritmaga o‘tkazish jarayonidagi ishchi eritma tarkibining o‘zgarish natijalari keltirilgan.



**7-rasm. Ikkilamchi texnogen rudalardagi dastlabki hamda taklig etilgan texnologiya asosida qayta ishlangandan keyingi uran miqdorining o‘zgarishi**

7-jadvaldagi natijalardan ko‘rinadiki taklif etilgan texnologik sxema qo‘llanilganda 75 % uran ishchi eritma tarkibiga o‘tadi. Yuqoridagi tajribalardan tashqari taklif etilgan texnologik sxemani qo‘llash jarayoni uchun ishchi eritmada 3 martagacha qayta foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi.

7-jadval

Ikkilamchi texnogen uran rudalarini eritmaga o‘tkazish jarayonidagi ishchi eritma tarkibining o‘zgarishi

Namuna №	Dastlabki namunalardagi uran miqdori, g/t	Ishchi eritma tarkibidagi uran miqdori, g/l	Qattiq namunadan ajralgan uran miqdori, g/t
1	318,6	153,1	275,6
2	324,3	157,7	283,8
3	342,7	164,1	295,4
4	319,8	152,6	274,7
5	332,0	159,6	287,2
6	328,6	159,2	286,5
7	346,2	165,2	297,4
8	354,4	170,1	306,2
9	328,5	158,9	286,1
10	315,7	150,5	270,9
11	345,6	167,2	301,0
12	326,7	159,9	287,8

**«Ikkilamchi texnogen rudalardan uran olish uchun taklif etilgan uyumda eritmaga o‘tkazish texnologiyasini qo‘llash imkoniyatlarini o‘rganish»** deb nomlangan beshinchi bobda tarkibida uran bo‘lgan ikkilamchi rudalarning fizik-texnik parametrlari va uran qazib olishning geotexnologik jarayonlari masalalari har tomonlama o‘rganildi.

